

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ALIYEV ARSLON SALOM O‘G‘LI

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Aliyev Arslon Salom o‘g‘li

Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning
ustuvor yo‘nalishlari.....3

Алиев Арслон Салом угли

Приоритетные направления укрепления финансовой устойчивости
негосударственных некоммерческих организаций.....27

Aliev Arslon Salom ugli

Priority directions for strengthening the financial stability of non-governmental non-
profit organizations53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ALIYEV ARSLON SALOM O‘G‘LI

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt6029 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusanov Otabek Nishonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

G'oyibnazarova Zumrat Talatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tursunov Jaxongir Pulatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.I.42.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «24» 07 soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100011, Toshkent shahri, Samarqand darvoza ko'chasi 60-uy. Tel.: (99871) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (423 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A Navoiy ko'chasi 32-uy. Tel.: (99871) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «10» 07 kuni tarqatildi.

(2026-yil «N^o6» 10.07 dagi reyestr bayonnomasi)



D.N. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.J. Xo'jamurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Xusainov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va inson huquqlarini ta'minlash sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ular aholining ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik manfaatlarini ifoda etish, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 31-dekabr holatiga Iqtisodiy va ijtimoiy kengash huzurida 6 468 ta nodavlat tashkilot faol konsultativ maqomga ega bo'lib, bu fuqarolik jamiyati institutlarining global boshqaruv tizimidagi o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi¹. Mazkur holat nodavlat notijorat tashkilotlari zamonaviy iqtisodiyot va ijtimoiy boshqaruv tizimida muhim institutsional salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi masalasi, ularni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish jarayoni, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Qolaversa, donor mablag'larining qisqarishi, grant mablag'larini jalb etishdagi raqobatning kuchayishi hamda tashqi moliyaviy oqimlarning beqarorligi nodavlat notijorat tashkilotlarining uzoq muddatli faoliyat yuritish imkoniyatlari va institutsional mustahkamligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD - Organisation for Economic Co-operation and Development) tahlillarida rasmiy rivojlanish yordami hajmidagi pasayish fuqarolik jamiyati institutlari uchun moliyaviy manbalarni qayta ko'rib chiqish zaruratini kuchaytirayotgani qayd etiladi². Mazkur holat NNTlar faoliyatida moliyaviy manbalarga bir tomonlama qaramlikni kamaytirish, ichki moliyaviy zaxiralarni shakllantirish, mablag'lardan foydalanishda shaffoflikni kuchaytirish hamda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlar bilan boyitish bugungi kunda dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash borasida muhim institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda NNTlarning ijtimoiy hayotdagi faolligi ortib borishi ularni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, davlat grantlari, subsidiyalar hamda ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlar ishtirokini kengaytirish fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, erishilayotgan ijobiy natijalarga qaramasdan, nodavlat notijorat tashkilotlarining uzoq muddatli moliyaviy

¹ United Nations Department of Economic and Social Affairs. Amplifying the voices of civil society. New York, 2025.

² OECD. Development Co-operation Report 2024: Tackling Poverty and Inequalities through the Green Transition. Paris: OECD Publishing, 2024.

barqarorligini mustahkamlash, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish, o'z mablag' manbalarini kengaytirish, moliyaviy xavflarni baholash hamda mablag'lardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq masalalar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish, bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur dissertatsiya mavzusining zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotining zarurati O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi 763-I-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-yanvardagi O'RQ-76-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi O'RQ-376-son "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5012-son "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqotining muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi masalasi notijorat tashkilotlari iqtisodiyoti, resurslarga qaramlik nazariyasi va moliyaviy zaiflik konsepsiyalari doirasida xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Xususan, L.M. Salamon va H.K. Anheier nodavlat notijorat sektorining institutsional tabiatini asoslab bergan, H.P. Tuckman va C.F.

³ O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi 763-I-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-yanvardagi O'RQ-76-son "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi O'RQ-376-son "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi PQ-5012-son "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Chang hamda J.S. Greenlee va J.M. Trussel NNTlarning moliyaviy zaifligini baholash va prognozlash yondashuvlarini, K.A. Froelich, D.A. Carroll va K.J. Stater esa daromad manbalarini diversifikatsiya qilishning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini nazariy va empirik jihatdan asoslab berganlar⁴.

MDH ilmiy maktabida NNTlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar asosan ularning resurs ta'minoti, moliyaviy boshqaruv amaliyoti, davlat ko'magi bilan o'zaro aloqadorligi hamda ijtimoiy yo'naltirilgan tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi institutsional shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan shakllangan. Jumladan, L.I. Yakobson va I.V. Mersiyanova NNTlarning institutsional muhiti va resurs ta'minotini, E.R. Baxankova va M.L. Makalskaya notijorat tashkilotlarda moliyaviy boshqaruv masalalarini, T.Yu. Kiseleva va V.B. Benevolenskiy esa moliyaviy resurslar, davlat ko'magi va ijtimoiy yo'naltirilgan NNTlar faoliyatining tashkiliy mexanizmlarini yoritgan⁵. Mazkur tadqiqotlarda NNTlarning moliyaviy barqarorligi alohida integral baholash obyekti sifatida emas, balki resurs bazasi, davlat bilan hamkorlik va boshqaruv mexanizmlari bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy asoslari, fuqarolik jamiyati tizimidagi o'rni hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'nalishlarida bir qator o'zbek olimlaridan O.N. Xusanov, O. Ne'matov, J.B. Xasanov, B.A. Narimanov, J.J. Shirinov, D.R. Xolmanova va boshqa mahalliy tadqiqotchilar ilmiy ishlarida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda NNTlarni moliyalashtirish manbalari, davlat grantlari, subsidiya va ijtimoiy buyurtmalar, mablag'lardan foydalanish va hisobot yuritish tartibi, shuningdek, faoliyatning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan⁶.

Yuqorida keltirilgan mavjud ilmiy tadqiqotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining aynan moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor

⁴ Salamon L.M., Anheier H.K. Social Origins of Civil Society: Explaining the Nonprofit Sector Cross-Nationally// Voluntas. 1998. Vol. 9, No. 3; Tuckman H.P., Chang C.F. A Methodology for Measuring the Financial Vulnerability of Charitable Nonprofit Organizations // Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly. 1991. Vol. 20, No. 4; Greenlee J.S., Trussel J.M. Predicting the Financial Vulnerability of Charitable Organizations // Nonprofit Management and Leadership. 2000. Vol. 11, No. 2; Froelich K.A. Diversification of Revenue Strategies: Evolving Resource Dependence in Nonprofit Organizations // Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly. 1999. Vol. 28, No. 3; Carroll D.A., Stater K.J. Revenue Diversification in Nonprofit Organizations: Does It Lead to Financial Stability? // Journal of Public Administration Research and Theory. 2009. Vol. 19, No. 4.

⁵ Якобсон Л.И., Мерсиянова И.В. Негосударственные некоммерческие организации: институциональная среда и эффективность деятельности. М.: Издательский дом Государственного университета — Высшей школы экономики, 2007; Баханкова Е.Р., Макальская М.Л. Некоммерческие организации в России: финансовое управление. М.: Дело и Сервис, 2004; Киселева Т.Ю. Анализ формирования и использования финансовых ресурсов некоммерческих организаций в современных условиях // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2016; Беневоленский В.Б. Государственная поддержка социально ориентированных некоммерческих организаций: зарубежный опыт // Вопросы государственного и муниципального управления. 2013. № 3.

⁶ Xusanov O. Mamlakatda nodavlat va notijorat tashkilotlarni moliyalashtirish masalalari//Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2024. Jild 2, № 1. B. 166–171. Ne'matov O. Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023. № 11–12. Xasanov J.B. Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida namoyon bo'lishi//Science and Innovation. 2023. № 17. B. 81–83. Narimanov B.A. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish: avtoreferat. Toshkent, 2023. Shirinov J.J. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati instituti sifatida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari: avtoreferat. Toshkent, 2021. Xolmanova D.R. "O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni" mavzusida dissertatsiya (yuridik yo'nalishda) 2012-y.

yo‘nalishlari, moliyalashtirish manbalari tarkibi, grantlar, subsidiyalar, ijtimoiy buyurtmalar, xayriya mablag‘lari va a‘zolik badallari o‘rtasidagi nisbat, moliyaviy xavflar hamda ularni miqdoriy baholash mezonlari O‘zbekiston sharoitida kompleks iqtisodiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat tanlangan dissertatsiya mavzusining ilmiy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazida 2025/2026-yillarda ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liq holda olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlariga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi tushunchasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish;

moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni moliyaviy, institutsional va tashkiliy mezonlar asosida tasniflash;

moliyaviy manbalar tarkibi, ularning shakllanish xususiyatlari va dinamikasini tahlil qilish hamda ularning darajasini baholash;

nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini va boshqa mexanizmlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

moliyaviy barqarorlikni baholashga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va kompleks baholash mezonlarini ishlab chiqish;

moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga doir iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya, deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, Gretl dasturi va ARIMA modeli, mantiqiy va qiyosiy tahlil, matematik va statistik, statistik guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini yagona integral indeks (NNT-MBI) usuli orqali NNT-MBI ko‘rsatkichini amaliy boshqaruv instrumentiga aylantirish maqsadida raqamli moliyaviy barqarorlik axborot tizimi taklif etilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi

hamkorlikni mustahkamlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli ishlab chiqilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida jamoat nazoratining ta'sirini kuchaytirish maqsadida shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv taklif etilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini nazorat qilish maqsadida raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan platforma orqali moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini kompleks baholash, uning darajasini aniqlash hamda moliyaviy xavflarni oldindan prognoz qilish imkonini beruvchi yagona integral ko'rsatkich - NNT-MBI ishlab chiqilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanish hamda moliyaviy resurslarni maqsadli taqsimlashni ta'minlashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli ishlab chiqilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida mablag'lardan foydalanishning ochiqqligini ta'minlash, manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirish va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv taklif etilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini nazorat qilish, moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar asosidagi integratsiyalashgan monitoring platformasi mexanizmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, iqtisodiy-statistik, ekonometrik tahlil va qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish usullarining asoslanganligi, tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa rasmiy manbalar ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, tadqiqot yakunida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy ma'lumotlar bilan o'zaro solishtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga doir nazariy qarashlar tizimlashtirilgani, ushbu tushunchaning iqtisodiy mazmuni aniqlashtirilgani, moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar tasniflangani hamda uni baholashga oid uslubiy yondashuvlar

takomillashtirilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotda NNTlarning moliyalashtirish manbalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy xavf omillari va ularni baholash mezonlari o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, moliyaviy barqarorlikni integral ko'rsatkich asosida aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur natijalar nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy qarashlarni boyitishga, kelgusidagi tadqiqotlar uchun uslubiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy jihatdan barqaror tashkil etish, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, jamoat nazoratini kuchaytirish hamda boshqaruv samaradorligini yuksaltirishda qo'llanishi mumkin. Xususan, NNT-MBI integral ko'rsatkichi NNTlar moliyaviy holatini kompleks baholashda, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda, shaffoflik va hisobdorlikka oid yondashuvlar mablag'lardan foydalanishning ochiqligini ta'minlashda, raqamli monitoring platformasidan foydalanish esa moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilishda muhim amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur natijalardan vakolatli davlat va jamoat institutlari, xususan O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining amaliy faoliyatida, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida "Moliya", "Davlat moliyasi", "Moliya asoslari" fanlarini o'qitishda hamda ularning o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini yagona integral indeks (NNT-MBI) orqali baholash usuli asosida NNT-MBI ko'rsatkichini amaliy boshqaruv instrumentiga aylantirish maqsadida ishlab chiqilgan raqamli moliyaviy barqarorlik axborot tizimi taklifi O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorligini baholash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va monitoring qilish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 17-dekabrdagi 1-755/25-sonli hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 12-dekabrdagi IF 41/25 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etish natijasida moliyaviy barqarorlikni baholash vaqti 3–4 haftadan 1–2 haftagacha qisqardi, subyektiv baholash ulushi 40–50 foizga kamaydi, 1 yil ichida nodavlat notijorat tashkilotlarining 35–45 foizi ijobiy natijaga ega bo'lgan.

nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi

hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli taklifi O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorligini baholash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va monitoring qilish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 17-dekabrda 1-755/25-sonli hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 12-dekabrda IF 41/25 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur modelni amaliyotga joriy etish natijasida davlat va xususiy sektor o'rtasida resurslarni taqsimlash samaradorligi 30 foizga, moliyalashtirish jarayonlarining umumiy samaradorligi esa 20 foizga oshgan. Shu bilan birga, ijtimoiy buyurtma loyihalarni saralash va tanlab olishga sarflanadigan vaqt 45 foizga qisqardi, moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi shaffoflik darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi hamda ijtimoiy buyurtma mablag'lari bilan qo'llab-quvvatlangan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 10 foizga ko'paygan;

nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida jamoat nazoratining ta'sirini kuchaytirish maqsadida shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv taklifi O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorligini baholash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va monitoring qilish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 17-dekabrda 1-755/25-sonli hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 12-dekabrda IF 41/25 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish natijasida jamoatchilik nazoratining samaradorligi 30 foizga oshdi, hisobot berish jarayonlariga sarflanadigan vaqt 20 foizga qisqardi hamda jamoatchilik ishtiroki asosida amalga oshirilayotgan tashabbuslar soni 15 foizga ko'paydi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlar orqali jamoatchilik orasida shaffoflik va hisobdorlikka bo'lgan ishonch darajasi 25 foizga ortgan. Tashkil etilgan monitoring komissiyalari faoliyati natijasida aniqlangan kamchiliklar soni 30 foizga qisqarib, nazorat jarayonlarining umumiy samaradorligi sezilarli darajada yaxshilangan.

nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini nazorat qilish maqsadida raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan platforma orqali moliyalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish taklifi O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, ularning moliyaviy barqarorligini baholash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va monitoring qilish

amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2025-yil 17-dekabrda 1-755/25-sonli hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2025-yil 12-dekabrda IF 41/25 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida monitoring jarayonlarining tezkorligi 35 foizga oshdi, xatolar soni 40 foizga qisqardi hamda moliyalashtirish jarayonlarining shaffofligi yaxshilanib, jamoatchilikning ishonchi ortdi. Shuningdek, jamoatchilik fikrini yig'ish imkoniyati yaratildi, jamoatchilik muhokamasi tashkil etildi va qaror qabul qilish samaradorligi oshdi, foydalanuvchi tashkilotlar soni 30 foizga ko'paydi va umumiy xarajatlar 10 foizga kamaydi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta (shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Qolaversa 6 ta tezis, bundan 3 tasi xalqaro konferensiyalarda, 3 tasi esa respublika konferensiyalarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 129 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirishning nazariy-iqtisodiy asoslari”** nomli birinchi bobida nodavlat notijorat tashkilotlarining iqtisodiy mohiyati, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi nazariy yondashuvlar, tashkiliy-huquqiy faoliyat asoslari hamda xorijiy tajribadan kelib chiqadigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadqiq etilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari foyda olishni asosiy maqsad qilmaydigan, ijtimoiy manfaatlarni ta'minlash, aholining muayyan guruhlari ehtiyojlarini ifoda etish, fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional subyekt sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonunida NNT jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etiladigan, daromad olishni asosiy maqsad qilib olmaydigan hamda olingan daromadni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi

boshqarish tashkiloti sifatida belgilangan⁷.

NNTlar faoliyatining sohalar kesimidagi tarkibi ularning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotda amalga oshirilgan guruhlash natijalariga ko'ra, NNTlar faoliyatida ta'lim yo'nalishi 22 foiz, ijtimoiy himoya 20 foiz, sog'liqni saqlash 18 foiz, ekologiya 15 foiz, yoshlar siyosati 15 foiz va boshqa yo'nalishlar 10 foiz ulushni tashkil etadi. Mazkur holat NNTlarning inson kapitalini rivojlantirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash tizimiga ko'maklashish, ekologik barqarorlik va yoshlar faolligini oshirish kabi muhim ijtimoiy yo'nalishlarda faol ishtirok etayotganini anglatadi. Shu bilan birga, faoliyat sohalarining xilma-xilligi ularning moliyaviy ehtiyojlari, resurslardan foydalanish xususiyatlari va moliyalashtirish manbalariga bo'lgan talablarini ham turlicha shakllantiradi. Demak, NNTlarning moliyaviy barqarorligini baholashda faqat mablag' hajmi bilan cheklanmasdan, daromad manbalari barqarorligi, tashqi moliyalashtirishga qaramlik darajasi, moliyaviy mustaqillik, operatsion uzluksizlik va hisobdorlik kabi mezonlarni ham kompleks hisobga olish zarur. Mazkur jihatlar NNTlar moliyaviy barqarorligini baholashga doir nazariy yondashuvlarni tizimlashtirishni taqozo etadi.

1-jadval

Nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy barqarorligini baholashga doir nazariy yondashuvlar⁸

Yondashuv	Asosiy mazmuni	Tadqiqot uchun metodik ahamiyati
Institutsional yondashuv	NNT moliyaviy barqarorligi davlat, bozor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muvozanat sharoitida resurs bazasini shakllantirish hamda institutsional mustaqillikni saqlash bilan izohlanadi	Moliyaviy barqarorlikni faqat ichki mablag' emas, balki institutsional muhit bilan bog'liq holda baholash zarurligini asoslaydi
Moliyaviy zaiflik yondashuvi	Tashkilot moliyaviy zarba yuzaga kelganda xizmat ko'rsatish faoliyatini keskin qisqartirmasdan davom ettira olishi kerak	NNT-MBI indeksida operatsion barqarorlik va moliyaviy xavf mezonlarini kiritish zaruratini asoslaydi
Diversifikatsiya yondashuvi	Bitta moliyalashtirish manbasiga haddan tashqari qaramlik NNT moliyaviy barqarorligini pasaytiradi	Daromad manbalari diversifikatsiyasini alohida indikator sifatida ajratishga asos bo'ladi
Moliyaviy salohiyat yondashuvi	NNT o'z majburiyatlarini bajarishi, dasturiy faoliyatini moliyalashtirishi va o'zgaruvchan sharoitga moslasha olishi kerak	Moliyaviy mustaqillik, likvidlilik va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga metodik asos yaratadi

Keltirilgan yondashuvlar NNTlarning moliyaviy barqarorligi faqat mablag'

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, 1999-yil 14-aprel, 763-I-son, 2-modda.

⁸ Salamon L.M., Anheier H.K. Social Origins of Civil Society: Explaining the Nonprofit Sector Cross-Nationally // Voluntas. 1998. Vol. 9, No. 3; Tuckman H.P., Chang C.F. A Methodology for Measuring the Financial Vulnerability of Charitable Nonprofit Organizations // Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly. 1991. Vol. 20, No. 4; Froelich K.A. Diversification of Revenue Strategies: Evolving Resource Dependence in Nonprofit Organizations // Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly. 1999. Vol. 28, No. 3; Bowman W. Financial Capacity and Sustainability of Ordinary Nonprofits // Nonprofit Management and Leadership. 2011. Vol. 22, No. 1.

mavjudligi bilan emas, balki daromad manbalarining diversifikatsiyasi, operatsion uzluksizlik, moliyaviy mustaqillik, likvidlilik, shaffoflik va hisobdorlik kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadigan kompleks iqtisodiy kategoriya ekanini ko'rsatadi. Shu asosda tadqiqotda NNTlarning moliyaviy barqarorligi moliyaviy resurslarni barqaror shakllantirish, moliyaviy xavflarga moslashish va ustav faoliyatini uzluksiz moliyalashtirish qobiliyati sifatida talqin etildi.

NNTlarning moliyaviy barqarorligini kompleks baholashda mablag'lar hajmi bilan birga ularning manbalari, muntazamligi, tashqi moliyalashtirishga qaramlik darajasi va foydalanish samaradorligini ham hisobga olish zarur. Shu sababli keyingi boblarda alohida ko'rsatkichlar emas, balki ularni yagona tizimda umumlashtiruvchi NNT-MBI integral indeksidan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish NNTlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda huquqiy tartibga solishning aniqligi, donorlar va xayriya qiluvchilar uchun soliq imtiyozlari hamda moliyaviy hisobotlarning ochiqqligi muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida daromad solig'i, mol-mulk solig'i, QQS, grantlar va xayriya mablag'lari bo'yicha yengilliklar NNTlarning ijtimoiy foydali faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Birinchi bob doirasida olib borilgan nazariy tahlillar NNTlarning moliyaviy barqarorligini baholashda faqat mablag'lar hajmiga tayanish yetarli emasligini ko'rsatdi. Bunda daromad manbalarining diversifikatsiyasi, operatsion uzluksizlik, moliyaviy mustaqillik, likvidlilik, shaffoflik va hisobdorlik mezonlarini o'zaro bog'liq holda baholash zarurligi asoslandi. Ushbu yondashuv NNT-MBI integral indeksini ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur bobda shakllantirilgan nazariy-metodik yondashuvlar NNTlarning moliyaviy barqarorligini kompleks baholash zaruratini asoslab berdi. Moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi, moliyaviy mustaqillik, operatsion uzluksizlik va hisobdorlikni birgalikda tahlil qilish amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmlarining amaldagi holati, ularning huquqiy va institutsional asoslari hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni tadqiq etilgan. Mazkur bobda NNTlarni davlat tomonidan moliyalashtirish shakllari, davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasi mexanizmlarining 2017–2025-yillardagi dinamikasi, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari tahlil qilingan.

NNTlarni davlat tomonidan moliyalashtirish asosan davlat granti, davlat subsidiyasi va davlat ijtimoiy buyurtmasi kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar NNTlarning ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarini moliyalashtirish, ustav faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda davlat organlari tomonidan belgilangan ijtimoiy vazifalarni bajarishda ularning ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur moliyalashtirish shakllari

huquqiy asosi, ajratilish tartibi, maqsadli yo‘nalishi va foydalanish xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Shu sababli ularni qiyosiy tahlil qilish NNTlarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining amaldagi holatini baholash, mavjud imkoniyat va cheklovlarni aniqlash hamda mazkur mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval


NNTlarni davlat tomonidan moliyalashtirish shakllari⁹

Mexanizm nomi	Huquqiy asosi	Asosiy maqsadi	Ajratish tartibi
Davlat granti	"NNT faoliyati kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun (13-modda), "Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida"gi Qonun (20-modda)	Ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha/dasturlarni qo‘llab-quvvatlash	Tanlov asosida
Davlat subsidiyasi	"NNT faoliyati kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun (12-modda), "Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida"gi Qonun (19-modda)	NNTlarning ustav faoliyatini (ba‘zan loyihasiz) qo‘llab-quvvatlash	Odatda tanlovsiz, ma‘lum toifadagi NNTlarga
Davlat ijtimoiy buyurtmasi	"NNT faoliyati kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun (14-modda), "Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida"gi Qonun (21-modda)	Davlat organlari tomonidan belgilangan ijtimoiy muammolarni hal qilish	Tanlov asosida

Davlat granti, subsidiya va ijtimoiy buyurtma NNTlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining asosiy mexanizmlari hisoblanadi. Grantlar ijtimoiy loyiha va dasturlarni, subsidiyalar ustav faoliyati hamda institutsional barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy buyurtma esa davlat belgilagan ijtimoiy muammolarni hal etishda NNTlarning hamkorlikdagi ishtirokini kuchaytiradi. PF-124-son Farmonga muvofiq jamoat fondlarining birlashtirilishi esa ushbu tizimning institutsional asosini mustahkamlab, ajratilayotgan mablag‘lar ko‘lamini kengaytirdi. Tahlillarga ko‘ra, 2017–2025-yillar davomida ushbu yo‘nalishga jami 3085,7 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, uning yillar kesimidagi o‘zgarishini tahlil qilish NNTlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimidagi o‘rish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi¹⁰. Shu bois 2017–2025-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan umumiy mablag‘lar dinamikasi alohida tahlil qilindi.


⁹ Milliy qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 26-avgust, PF-124-son; Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi ma‘lumotlari.



1-rasm. 2017–2025-yillarda NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ajratilgan mablag'lar dinamikasi (mlrd.so'm)¹¹

1-rasm ma'lumotlari 2017–2025-yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan NNTlarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi izchil oshganini ko'rsatadi. Bu sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati davom etayotganini tasdiqlaydi. Biroq mablag'lar hajmining o'sishi moliyaviy barqarorlikni to'liq ifodalamaydi, shu sababli subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar dinamikasi alohida tahlil qilindi.



2-rasm. 2017–2025-yillarda davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasiga ajratilgan mablag'lar dinamikasi (mlrd.so'm)¹²

¹¹ Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹² Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ma'lumotlari asosida

2-rasm ma'lumotlari 2017–2025-yillar davomida NNTlarni davlat tomonidan moliyalashtirishda davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasi turlicha dinamikaga ega ekanini ko'rsatadi. Davlat subsidiyalari hajmining ortishi ayrim NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarining ustav faoliyati hamda institutsional barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy yordam kengayganini bildiradi. Davlat grantlari aniq ijtimoiy loyiha va dasturlarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi tanlov asosidagi mexanizm sifatida namoyon bo'lsa, davlat ijtimoiy buyurtmasi NNTlarning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi rolini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasi kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hajmining ortib borishi NNTlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi avtomatik tarzda mustahkamlanishini anglatmaydi. Moliyaviy barqarorlik ajratilgan mablag'lar miqdori bilan birga ularning manbalari xilma-xilligi, davomiyligi, maqsadli sarflanishi va ijtimoiy natijadorligi bilan ham belgilanadi. Tahlillar ayrim NNTlarda davlat mablag'lariga qaramlik yuqoriligi, grant va subsidiyalarning qisqa muddatli yoki loyihaviy xarakterga egaligi, operatsion xarajatlarni uzluksiz qoplash imkoniyati cheklanganligi hamda monitoring mexanizmlari yetarli darajada tizimlashmaganini ko'rsatadi. Shu bois moliyaviy xavflarni kamaytirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va ajratilayotgan mablag'larning ijtimoiy samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Mazkur holat 2025-yilga oid umumlashtirilgan ko'rsatkichlar misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur xulosani 2025-yilga oid umumlashtirilgan ko'rsatkichlar ham tasdiqlaydi. Xususan, 2025-yilda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan jami mablag'lar hajmi 1 trln 276 mlrd so'mga yetgan, hududlarda NNTlarni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lar esa 2021-yildagi 15,3 mlrd so'mdan 2025-yilda 74,1 mlrd so'mga oshgan. Qo'llab-quvvatlangan maqsadli loyihalar sonining 2024-yildagi 23 tadan 2025-yilda 51 taga ko'paygani moliyaviy resurslarni taqsimlash tizimining ko'lami kengayib, uning mas'uliyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu sharoitda mablag'larni faqat hajman oshirish bilan cheklanmasdan, ularni ustuvor yo'nalishlar, hududiy ehtiyojlar, ijtimoiy natijadorlik mezonlari va NNTlarning moliyaviy barqarorlik darajasi asosida taqsimlash zarurati kuchaymoqda. Shu jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash yondashuvi amaliy zarurat sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat mablag'lari bilan birga byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirish NNTlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim yo'nalishidir. Faqat grant, subsidiya va ijtimoiy buyurtmalarga tayanish ularning uzoq muddatli moliyaviy mustaqilligini cheklaydi. Shu sababli a'zolik va yillik badallar, trening chiptalari, tanlov ariza haqlari hamda boshqa qonuniy xizmatlardan olinadigan tushumlar qo'shimcha moliyalashtirish manbalari sifatida

tahlil qilindi. Mazkur manbalar operatsion xarajatlarni qoplash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va davlat mablag'lariga qaramlikni pasaytirishda muhim ahamiyatga ega.

3-jadval

Ayrim NNTlarning byudjetdan tashqari daromad manbalari¹³

NNT nomi	Sohasi	Daromad turi	Miqdori
UzTEA (ingliz tili o'qituvchilarini birlashtiradi, ularni rivojlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi)	Ta'lim	A'zolik badallari	65 000 so'm; 1 300 000 so'm; 13 000 000 so'm
IT Education Association (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta'limni rivojlantiradi)	IT ta'lim	Pullik a'zolik	100 000 so'm
O'zbekiston oftalmologlar assotsiatsiyasi (oftalmologiya sohasidagi mutaxassislarni birlashtiradi)	Sog'liqni saqlash	Yillik a'zolik badali	245 000 so'm
Sharoit Plus (nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv va to'siqsiz muhit yaratadi)	Ijtimoiy himoya	Yillik a'zolik badali	90 000 so'm
O'zbekiston Marketing uyushmasi (marketing sohasidagi ekspertlar, forumlar, tanlovlar, reytinglar va konsalting loyihalari bilan shug'ullanadi)	Marketing va forumlar	Trening chiptasi/tanlov ariza haqi	2 000 000 so'm/33 600 000 so'm

3-jadval ma'lumotlari ayrim NNTlar ta'lim, IT, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, marketing va forumlar yo'nalishlarida byudjetdan tashqari qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Bu davlat mablag'lariga qaramlikni kamaytirish, daromadlarni diversifikatsiya qilish va barqaror tushumlarni kengaytirish zarurligini asoslaydi. Ayrim NNTlarda bunday mablag'lar a'zolik badallari va xizmatlardan tashqari o'quv-ishlab chiqarish korxonalari orqali ham shakllanadi.

4-jadval

Ayrim NNTlar tizimidagi ishlab chiqarish korxonalari orqali shakllanayotgan byudjetdan tashqari daromad manbalari¹⁴

NNT nomi	Sohasi	Miqdori
O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati tizimidagi Buxoro o'quv ishlab chiqarish korxonasi	Inklyuziv ishlab chiqarish	222 908 259 so'm
O'zbekiston karlar jamiyati tizimidagi Buxoro o'quv ishlab chiqarish korxonasi	Inklyuziv ishlab chiqarish	1 013 064 720 so'm

Tahlil natijalari ayrim ijtimoiy yo'naltirilgan NNTlar tizimida ishlab chiqarish

¹³ Statistik tahlillar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁴ Statistik tahlillar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

faoliyati byudjet mablag'laridan tashqari qo'shimcha moliyaviy manba sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati hamda O'zbekiston karlar jamiyati tizimidagi Buxoro o'quv-ishlab chiqarish korxonalari misolida inklyuziv ishlab chiqarish faoliyati NNTlarning daromad bazasini kengaytirish, ijtimoiy bandlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Bob doirasida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, NNTlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida mablag'lar hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun resurslarni maqsadli taqsimlash, byudjetdan tashqari manbalarni kengaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda raqamli monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur xulosalar keyingi bobda davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari hamda raqamli monitoring platformasini asoslash uchun amaliy-tahliliy zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashni takomillashtirish yo'llari”** nomli uchinchi bobida NNTlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, NNT-MBI integral indeksi, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni taqsimlash modeli, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmi, raqamli monitoring platformasi hamda NNTlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmini prognozlash natijalari asoslangan.

Tadqiqotda NNTlarning moliyaviy barqarorligini kompleks baholash uchun NNT-MBI integral indeksi taklif etilgan. NNT-MBI integral indeksining hisoblash mantig'i mazkur ko'rsatkichlarni yagona integral bahoga keltirishga asoslanadi. Har bir tarkibiy ko'rsatkich 0 dan 1 gacha oraliqda baholangandan so'ng NNTlarning umumiy moliyaviy barqarorlik darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{NNT-MBI} = (\text{DDK} + \text{OBK} + \text{MMK} + \text{LK}) / 4$$

bu yerda:

DDK - daromad manbalari diversifikatsiyasi ko'effitsiyenti, OBK - operatsion barqarorlik ko'effitsiyenti, MMK - moliyaviy mustaqillik ko'effitsiyenti, LK - likvidlilik ko'effitsiyenti.

